



IMOM ISMOIL AL-BUXORIYNING “AL ADAB AL MUFRAD” ASARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY FIKRLARNI O’RGANISH MAZMUNI

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

Buxoro davlat universiteti pedagogika

kafedrasи o‘qituvchisi

g.b.saidnazarova@buxdu.uz

Annotatsiya: Maqolada Imom Ismoil al-Buxoriyning ilmiy faoliyati, asarlari jumladan “Al-adab al-mufrad” asari haqida ma’lumot, odob - axloq to’g’risidagi hadislarning o’rganilishi.

Kalit so`zlar: Odob-axloq, hadis, ta’lim-tarbiya, Imom al-muhaddisiyn, sahih, Kitob al-ilal, Birr al-volidayn, Kitob al-ashribati, al-Jome’ as-sahih, al-Adab al-mufrad, salomlashish odobi.

Аннотация: В статье дан краткий обзор жизни, научной деятельности и творчества имама Имамила аль-Бухари, а также изучена деятельность имама Имамила аль-Бухари, в том числе суть реформ, проводимых президентом нашей страны.

Опорные понятия: Мораль, хадисы, образование, «Амир-уль- моминин», «Имам аль-Мухадисийн», сахих, «Китаб аль-илаль», «Бирр аль-Воладайн», «Китаб аль-ашрибати», «аль -Джоме ас-сахих», «Аль-Адаб аль-муфрад», декламация.

Abstract: The article provides a brief review of Imam Ismail al-Bukhari's life, scientific activities, and works, as well as the study of Imam Ismail al-Bukhari's activities, including the essence of the reforms implemented by our country's president.



Key words: Morality, hadith, education, “Amir-ul-mo‘minin”, “Imam al-Muhaddisiyn” saheeh, “Kitab al-ilal”, “Birr al-Woladayn”, “Kitab al -ashribati”, “al-Jome’ as-sahih”, “al-Adab al-mufrad”, recitation.

KIRISH.

Barkamol avlodni tarbiyalab o’stirish masalasi hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu masalani hal etish va o’rganishda pedagog, psixolog sotsiolog, faylasuflar o’z qarashlarini fikr va mulohazalani bildirganlar. Jumladan Sadriddin Salim Buxoriyning “Tabarruk ziyoratgohlar”, Tajriba va izohlar muallifi Said Azim Muhammad Ali “Imom Buxoriy ta’rifi” A.Mansurov, U.Jo’rayev, M.Lafasov “Hadis ilmi saboqlari”, Hoji Ismatulloh Abdulloh ” Markaziy osiyoda Islom madaniyati” kitoblarida Imom ismoil al-Buxoriyning hayoti, ijodiy faoliyati keng yoritilgan Islom olamida Qur’oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis kitoblarining asosiy mazmunida ham inson shaxsi va uning kamoloti turadi. Barkamol insonni tarbiyalash jarayonida hozirgi va o’tmish tajribalarini o’rganib ularni umumlashtirgan holda amaliyotga tadbiq etilsa bu o’zining ijobiy natijasini beradi.

“Hadis” (arab. «xabar», «yangilik») yoki “Sunna” so’zlari bir ma’noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko’rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Keyingi yillarda Muhammad (s.a.v)ning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko’rsatmalarini o’z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” (“Ishonarli to’plam”), “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”), “At-Tarix as-sag’ir (Kichik tarix), “At-Tarix al-asvat”(O’rtacha tarix), “At-tarix al Kabir”(Katta tarix), “At-tavsir al-Kabir”(Katta tarix) asarlari nashr etildi. Ushbu asarlardan odob axloq haqidagi hadislardan iborat “Al adab al mufrad” kitobi juda mo’tabar va muhim manba sanalib odobga oid 1322 ta hadis kiritilgan 644 bobdan iborat.Ushbu kitobda ijtimoiy aloqalarga va kishilarning o’zaro muomalalariga oid odoblarga bog’liq hadislar keltirilgan. Kitobdagi “Al mufrad” so’zi “fard” ya’ni yolg’iz degan ma’noni anglatadi.” Al



Learning and Sustainable Innovation

adab al-mufrad” asari bir necha bor nashr etilgan jumladan Toshkentda 1970 yilda nashr qilingan¹

“Al adab al-mufrad” kitobining nomidan bilinib turibdiki, bu kitobning o‘zi odob-axloq, ta’lim-tarbiya to’g’risidadir. Asarda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Asarda keltirilgan hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, bular mehr-oqibat,mas’uliyat,vafodorlik,fidokorlik ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-onva kattalarga, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, hurmat ko‘rsatish, faqir-bechoralarga muruvvatli bo‘lish vatanga muhabbat, mehnat va kasbhunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘sst, tinchtotuv bo‘lish va boshqa ijobiy fazilatlardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o‘zini qanday bo‘lmasisin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z ifodasini topgan.

METODLAR

“Al- adab -al mufrad” kitobida tarbiyaning barcha turlariga alohida izoh berib, shulardan ma’naviy -axloqiy tarbiyaga oid hadislarning 1-24 boblarda ota-onaga yaxshilik qilish,ota-onani hurmat qilish,ota-onani mukofotlash,ota-onaning o‘limidan so‘ng yaxshilik qilish,ota-on duosi,ota-on va vafotidan so‘ng do’stlarini hurmat qilish va ularga yaxshilik qilish.25-29 boblari esa “ silai rahm”(yaxshilik qilish,rahmli bo‘lish)ga bag’ishlangan bo‘lib,har bir kishi yaxshilik qilishi va rahmdil ,mehribon bo‘lishi, 30-37 boblarda esa qarindoshlik munosabatlari 38-54 boblarda farzand tarbiyasi,ota-onaning farzandiga odob berishi va yaxshilik qilishi ,otaning farzandiga yaxshilik qilishi,farzandini go’zal xulqli va odobli qilib tarbiyalashi kabi hadislar keltirilgan 55-74 boblarda qo’shnichilik munosabatlari, odobi, qo’shnilarga ozor bermaslik, qo’shninning haqqini ado etish, yaxshilikni qo’shnidan boshlash har bir kishini ijobiy sifatlarini oshirishga, bir-biriga bo’lgan mehr oqibatni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu hadislarni tarbiyaning

¹ “Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Odoblar xazinasi” Al adab-al mufrad kitobining sharhi 54-bet




tushuntirish, ibrat ko'rsatish, namuna keltirish, hikoya qilish metodlari orqali o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

2-bobda Onani rozi qilish haqidagi Bahz ibn Hakim (r.a.) otasi va bobosidan rivoyat qildi, bobosi aytdi: "Rasulullohdan: "Ey, Rasulalloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?" - deb so'radim. "Onangga", dedilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham, Rasululloh: "Onangga", deyaverdilar. To'rtinchi marotaba so'raganimda: "Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga", dedilar. Ushbu hadis orqali ota-onaga, qarindosh birodarlariga yaxshilik qilishi, hurmat ehtirom ko'rsatishi, e'zozlashi kabi ijobiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

449-bobida esa salomni keng yoyish, oshkora qilish haqida Baro ibn Ozib r.a.)dan rivoyat qilindi: "Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Salomni oshkora qilinglar (orangizda yoyinglar), salomat bo'lasizlar". Ushbu hadisda "Assalamu alaykum" ya'ni salomlashishning odobi haqidagi fikrlarni aytganlar.

NATIJALAR. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:



Ushbu hadislarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Jumladan Inson iymonining mukammal bo'lish shartlari quyidagicha bayon etilgan.



To'g'ri e'tiqodli bo'lmoq,
tanigan va tanimagan kishiga salom bermoq,
kambag'alligida ham sadaqa berib turmoqdir.²

Shuningdek al-Buxoriy "Al-adab-al mufrad" asarida kishilarning bir,biriga mehribon dilkash bo'lishlari,bir-biriga ko'madosh va og'ir kunlarda bir biriga yelkadosh bo'lishi hamda bir-biriga xiyonat qilmasligi,fitnakor va munofiq bo'lmasligi kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega hadislari fikrimizning dalilidir.

Odob-axloqga oid hadislardan

"Qo'li va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi chin musulmondir" ushbu hadis orqali kishini yaxshi yo'lga chorlash har bir aytadigan gapini o'ylab gapirishi,birovning ko'ngliga ozor bermasligi,katta kishini hurmat qilib kichikni izzat qilishi har bir insonning odobini belgilab beradi.Qo'li bilan ozor berish bu yomon xulqlardan sanalib, birovga besabab qo'l ko'tarish,urish,kaltaklash yoki mol mulkiga ziyon yetkazish beadablik va zulumkorlikdir.

Abu Hurayra roziyalohu unhu aytdilar: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ummatimning yomonlari bekorchi, nojo'ya gaplarni tinmay javraganidir, ummatimning ya xshilari esa eng go'zal xulqlilaridir", dedilar" [3]. Bekorchi, behuda gap sotib, kishilarni bir-biriga yomonlab adovat chiqarish va insoniyatning eng yomoni bo'lib qolishdan saqlanishimiz lozim. O'z odob axloqimiz bilan insoniyatning eng yaxshisi bo'lishimizga harakat qilishimiz kerak.

Hadislarda insonning ma'naviy kamoloti yetuklik mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani,o'z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi komil shaxs bo'lib yetishishida muhim omil chiroyli xulqi va olobi bo'lish deb ko'rsatiladi. Biz ko'z o'ngimizda dunyoning turli

² A.Mansurov,U.Jo'rayev,M.Lafasov "Hadis ilmi saboqlari" Toshkent 1999 18-bet

³ [4]Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adabu-l-mufrad. Bayrut. Doru-l-bashoiri-l-islomiya, 1989. –B.443.



joylarida ro'y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, axborot kommunikatsiya manzarasidagi chuqur o'zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda yashamoqdamiz. Hammamizga ma'lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan biz yoshlar ongida ham ona vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, qadimiylar boy tariximizga, otabobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada shakllantirishimiz, keljak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rin tutadi.

Ilm shunday bir ne'matki uni egallash har birimiz uchun ham farz ham qarzdir. Ilmli inson hech qachon xor bo'lmaydi. Ham dunyoviy ham diniy bilimlarni birlashtirishimiz, lozim. Ilmli kishi ma'rifatli odob -axloqli komil insondir. Ma'rifatparvar olimu fuzalolargina insoniyatni yorug' yo'l tomon boshlay oladilar.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Imam Ismoil al-Buxoriyning "Al adab al-mufrad" asarida keltirilgan ma'naviy- axloqiy tarbiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi hadislar yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga, e'zozlashiga, do'stiga vafodor bo'lish, silai rahmi bo'lish, mehnatsevar va rostgo'y Sabr toqatlilik, mehnatsevarlik, vafodorlik va shunga oid ko'plab ijobiy sifatlar insonni ma'naviy -axloqiy tarbiyasini o'stirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 24-avgustda Samarqand viloyatida amaliy tashrifida Imom Buxoriy ziyorati
<https://president.uz/uz/lists/view/5457>
2. Hoji Ismatulloh Abdulloh "Markaziy osiyoda islom madaniyati" 48-52 bet
3. A.Mansurov, U.Jo'rayev, M.Lafasov "Hadis ilmi saboqlari" Toshkent 1999 18-bet
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Odoblar xazinasi", "Al-adab al-



5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adabu-l-mufrad. Bayrut. Doru-l-bashoiri-l islomiya, 1989. –B.443.
6. Жураев Б. Т. Вопросы нравственного и культурного воспитания в эпоху саманидов (на примере творчества ал-Бухари и ал-Фараби) //Современное общество: актуальные проблемы и перспективы развития в социокультурном пространстве. – 2020. – С. 66-71.
7. Жураев Б. Sharqda pedagogik faoliyatning maydonga kelishi va rivojlanishi //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/2. – С. 343-350.
8. Собирова Д. А., Сайдназарова Г. Социальный интеллект как инструмент коммуникативного и организационного взаимодействия //Вестник по педагогике и психологии Южной Сибири. – 2014. – №. 2. – С. 59-65.
9. Сайдназарова Г.Б.К. ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 37-40.
10. Сайдназарова Г. Б. Навык педагогического влияния //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3 (91). – С. 80-81.
11. Khodjaev B., Juraev B., Amonov M. Forming the spirituality of students and youth through pilgrimage tourism //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10017.
12. Сайдназарова Г. AL-BUXORIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O’RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. S/8.